Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti Xorijiy xil va adabiyoti quyi kurslar kafedrasi tomonidan Oltinsoy tumanidagi 27-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi bo‘yicha mobil metodik guruh *(22.02.2025-yil)* olib borgan faoliyati haqida

MA’LUMOT

Manzil: Oltinsoy tumani, "Sayrak" MFY, Sayrak qishlog‘i
Oltinsoy tumanidagi 27-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabida Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti Filologiya fakulteti Xorijiy til va adabiyoti quyi kurslar kafedrasi tomonidan mobil metodik guruh faoliyati davomida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. **Mobil metodik guruh faoliyatini tashkil etish:**
   - ✓ Maktab o‘qituvchilarining tarkibi, ma’lumoti, malaka toifasi va chet tili o‘qituvchilariga bo‘lgan ehtiyoj o‘rganildi.
   - ✓ Aniqlangan kamchilik va muammolarni bartaraf etish maqsadida tajriba almashish dasturi yo‘lga qo‘yildi hamda o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etildi.
2. **Pedagogik integratsion yondashuvlar bo‘yicha ochiq va mahorat darslari:**
   - ✓ Professor-o‘qituvchilar va maktab o‘qituvchilari hamkorligida ochiq darslar va mahorat darslari o‘tkazildi.
3. **Karyera markazi va til to‘garaklari haqida ma’lumot berish:**
   - ✓ Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti tomonidan tashkil etilgan Karyera markazida mavjud to‘garaklar haqida maktab o‘quvchilari va o‘qituvchilariga ma’lumot berildi.
   - ✓ Filologiya fakulteti Xorijiy til va adabiyoti quyi kurslar kafedrasi o‘qituvchilari — S. Murodova, G. Xabibulloyeva, R. Maxsumov va S. Hafizov tomonidan 2025-yil 22-fevral kuni “Xorijiy tillarni bilish – kelajakka qo‘yilgan ilk qadam” mavzusida davra suhbati o‘tkazildi.
   - ✓ Tadbirda maktabning o‘qituvchilari va 50 nafarga yaqin o‘quvchilari ishtirok etdi.
   - ✓ Yuqori sinf o‘quvchilari Institut qoshida barpo qilingan Karyera markazida ochilgan yangi til to‘garaklariga, jumladan ingliz, rus nemis, italyan, koreys, o‘zbek tillari kurslariga taklif etildi.
   - ✓ Shuningdek, kasb-hunar o‘rgatish to‘garaklari haqida ma’lumot berilib, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini unumli o‘tkazishlari uchun tegishli ko’rsatmalar berildi.

Hafta davomida o‘z yechimini topgan muammolar:

- ➢ Maktab bitiruvchilari uchun zarur bo‘lgan til to‘garaklari haqida batafsil ma’lumot taqdim etildi.
- ➢ Master-klass darslari o‘tkazildi.

Kelgusidagi taklif va tavsiyalar:

- ➢ Maktabga ingliz tili fani o‘qituvchilarini jalb qilish zarur.
- ➢ Maktab kutubxonasi yana kerakli darsliklar bilan ta’minlanishi lozim.
- ➢ Zamonaviy metodlarni o‘qituvchilarga yetkazish maqsadida mahorat darslari muntazam ravishda tashkil etilishi kerak.

Mazkur faoliyat doirasida amalga oshirilgan ishlar kelgusida ham davom ettirilishi rejalashtirilmoqda.

Mobil metodik guruh rahbari: V.Tangriyev

Oltinsoy tumani 27-maktab direktori: J.Xolboyev